


# Mavzu: Elektromagnit induktsiya

**Reja:**




**Elektromagnit induktsiya xodisasi**  
**Induktsion tok**  
**Lents qoidasi**  
**Induktsion elektr yurituvchi kuch**  
**Uzinduktsiya xodisasi**  
**Induktivlik**

Elektromagnit induktsiya xodisasi hozirgi zamon fizikasi va texnikasining eng muhim hodisalaridan biri bo'lib, u Faradey tomonidan 1831 yilda ochilgan. Faradey o'tkazgan tajribalaridan birida temir halqa olib, unga ko'p o'ramalardan iborat bo'lgan ikkita mis cho'lg'am o'radi: 1 cho'lg'am uchlariga tok manbai bilan K kalit ulangan bo'lib, ikkinchisiga galvanometr ulangan (1-rasm).

Birinchi cho'lg'amda kalit ulanib tok hosil bo'lганда, ikkinchi cho'lg'amda tok impulsi hosil bo'lган va galvanometr mili bir tomonga og'a boshlagan va juda tez nolga qaytgan. Birinchi cho'lg'am kaliti uzilganda ham ikkinchi cho'lg'amda tok impulsi hosil bo'lib, galvanometr mili boshqa tarafga og'ib, yana juda tez nolga qaytgan.



(1-rasm).



Ko'p sonli tajribalarda quyidagi qonuniyatlar aniqlangan:

Vaqt bo'yicha o'zgaradigan tashqi manit maydonida joylashgan o'zkazgichda elektr yurituvchi kuch paydo bo'ladi.

Agarda o'tkazgich yopiq bo'lsa, unda induksion tok hosil bo'ladi.

O'tkazgichda induktsiya hisobiga hosil bo'lgan EYUK kattaligi shu o'zkazgichni sizib o'tuvchi magnit induksiysi oqimining o'zgarish tezligiga proportionaldir.

$$\mathcal{E}_U = -\frac{d\Phi}{dt}, \quad (1)$$

Bu ifoda Faraydey-Maksvell qonuni deb ataladi.

YOpiq zanjirni sizib o'tuvchi magnit oqimining o'zgarishini shu zanjir atrofidagi magnit maydonini o'zgartirish yoki yopiq o'tkazgichni vaqt bo'yicha o'zgarmas magnit maydonda siljitisht hisobiga hosil qilish mumkin.

Birinchi holda, elektr va magnit maydonlarining Maksvell kashf etgan o'zaro ta'siriga asosan, magnit maydonining istalgan o'zgarish elektr maydonini hosil bo'lishiga olib keladi.

Ikkinci holda esa, o'tkazgichdagi erkin elektronlar harakatga kelib induksiyaviy elektr toki hosil qiladi.

Elektromagnit induksiya qonunini energiyaning saqlanish qonuniga asosalanib keltirib chiqarish mumkin.

uzunlikdagi o'tkazgich qisqa vaqt ichida, magnit maydon ta'sirida, db kichik masofaga siljigan bo'lsin. Bu holda tok manbai bajargan ish.

$$dA = \varepsilon I \cdot dt , \quad (2)$$


ga teng bo'ladi. Boshqa tarafdan sarflagan energiya ikki qismidan iborat bo'ladi:

a) Djoul-Lents qonuniga asosan o'zkazgichda issiqlik ajralishiga

$$I^2 R \cdot dt , \quad (3)$$

va b) magnit maydonida  $F=leB$  kuch ta'sirida o'tkazgichni siljitishda bajarilgan ishdan iborat bo'ladi.

$$F \cdot b = I \ell b \cdot B = I \cdot B \cdot dS = I \cdot d\Phi \quad (4)$$



bu yerda,  $R$  - zanjir qarshiligi.

Energiyaning saqlanish qonuniga asosan

$$\mathcal{E} \cdot I \cdot dt = RI^2 \cdot dt + I \cdot d\Phi \quad (5)$$

bu ifodaning ikki tarafini ldt ga bo'lsak,

$$\mathcal{E} = RI + \frac{d\Phi}{dt}$$

ga ega bo'lamiz. Buyerdan

$$I = \frac{\mathcal{E} - \frac{d\Phi}{dt}}{R} = \frac{\mathcal{E} + \mathcal{E}_U}{R} \quad (6)$$

Manbaining  $\mathcal{E}$  EYUK dan tashqari induktsiyaning EYUK deb ataluvchi qo'shimcha  $\mathcal{E}_U$  EYUK ta'sir etadi:

$$\mathcal{E}_U = -\frac{d\Phi}{dt}, \quad (7)$$

va yana (1) - ifodaga ega bo'ldik.


Buyerda, minus ishora, yopiq zanjirni sizuvchi  $\left( \frac{d\Phi}{dt} > 0 \right)$  oqim oshishi bilan Induktsiya EYUK manba' EYUK ga teskari yo'nalgan bo'ladi,  $\varphi$  - oqim kamayganda ikkala EYUK yo'nalishi bir xil bo'ladi.

Lents qoidasiga asoslanib induktsiya EYUK yo'nalishini aniqlash mumkin: induktsiyalangan EYUK va tokning doimo shunday yo'nalishga ega bo'ladi, bunda tokning hosil qilgan magnit maydoni shu tokni hosil qilgan harakatga qarshilik qiladi.

### Misol-1

O'tkazgichdan iborat xalqaga magnitning shimoliy qutbini yaqinlashtiramiz (2=rasm) halqada tok hosil bo'ladi, uning magnit maydoni magnitning shimoliy qutbini itarishga harakat qiladi, ya'ni yana yaqinlashishiga to'sqinlik qiladi. Natijada, bu tokning kuch chiziqlari halqada o'ngdan chapga tomon harakat qiladi, ya'ni biz tarafda pastdan yuqoriga qarab harakatlanadi.

## Misol 2




$\ell$  uzunlikdagi o'tkazgich, uning uzunligiga perpendikulyar bo'lgan yo'nalishda  $v$  tezlik bilan harakatlansin.  $V$  induktsiyali magnit maydon harakat yo'nalishi va o'tkazgich uzunligiga perpendikulyar bo'lsin. O'tkazgichdagi zaryadli erkin elektronlarning har biri o'tkazgich bilan  $v$  tezlikda harakatlanadilar. Ularning har biriga  $f = e\mathbf{v} \times \mathbf{B}$  Lorents kuchi ta'sir kiladi. Fikran Lorents kuchini unga teng  $eE = e\mathbf{v} \times \mathbf{B}$  elektr kuchi bilan almashtiramiz.

$E = v \cdot V$  kattalikni Lorents kuchi maydonining kuchlanganligi deb ataymiz. Bu kuchlanganlik xuddi o'tkazgichning  $\ell$  uzunligiga teng kesmasiga

$$\Delta\varphi = \mathcal{E}\ell = vBl$$

potentsiallar farqi qo'yilganda hosil bo'lar edi va u induksiya elektr yurituvchi kuchiga tengdir.

$$\mathcal{E}_U = -\frac{d\Phi}{dt} = -vBl$$




SHunday qilib o'tkazgichda harakat qilayotgan erkin elektronlarga Lorents kuchining ta'siri **(1)** - ifodaga olib keladi.

Agarda yopiq zanjir N-ta o'ramlardan iborat bo'lsa va magnit oqimining kuch chiziqlarining har biri shu o'ramlarni sizib o'tsa (4-rasm), u holda bu oqimning o'zgarishi zanjirda induksiyanadigan EYUK quyidagiga teng bo'ladi.


$$\mathcal{E}_U = -N \frac{d\Phi}{dt} = -\frac{d\varphi}{dt} \quad (8)$$

bu yerda,  $\varphi = NF$  - oqim tutilishi deb ataladi.

Kuch chiziqlariga perpendikulyar bo'lgan o'q atrofida, V induksiyanali bir jinsli magnit maydonida  $\omega$  doimiy burchak tezlik bilan aylanayotgan, har bir S yuzaga ega bo'lgan N o'ramlardan iborat ramkaning elektromagnit induksiyasini ko'rib chiqamiz (5-rasm)




4-rasm



$$\Phi = BS \cdot \cos\alpha$$

5-rasm



$$\Phi_o = BS$$

Boshlang'ich momentda ( $t=0$ ) ramka tekisligi  $V$  yo'nalishga perpendikulyar bo'lisin. Bu ramkani sizib o'tuvchi magnit oqimi

$$\mathbf{F}_o = \mathbf{BS}$$
 dan

iborat.  $t$  momentda esa, u

$$\mathbf{F} = \mathbf{BS} \cdot \cos\alpha$$

ga teng bo'ladi. Ramkadagi oqim tutilishi

$$\psi = \mathbf{NBS} \cdot \cos\alpha$$

ga teng. Induktsiyalangan EYUK esa, quyidagiga teng bo'ladi:




$$\mathcal{E}_U = \frac{d\psi}{dt} = NBS \cdot \omega \cdot \sin \omega t = \mathcal{E}_o \sin \omega t$$

Zanjir qarshiligi  $R$  bo'lsa, ramkadagi tok

$$I = \frac{\mathcal{E}_o}{R} \sin \omega t = I_0 \cdot \sin \omega t \quad (10)$$

ga teng bo'ladi.

# Diagram



Copyright © Addison Wesley Longman, Inc.

Bu yerda,  $\varepsilon_0$  va  $I_0$  - EYUK va tokning maksimal qiymatlaridir.

(10) - ifoda bo'yicha o'zgaruvchi tok, sinusoidal o'zgaruvchan tok deb ataladi.

Oqim tuilishi  $\psi_1$  dan  $\psi_2$  qiymatga o'zgarishi uchun ketgan vaqtida zanjir orqali oqib o'tgan Q zaryad miqdorini hisoblab ko'ramiz.  
t - vaqt momentida induktsiyaviy tok

$$I = \frac{\varepsilon_U}{R} = -\frac{I}{R} \frac{d\psi}{dt}$$

ga teng. dt kichik vaqt ichida zanjir orqali dφ zaryad oqib o'tadi:

$$dQ = -\frac{I}{R} \frac{d\psi}{dt} \cdot dt = \frac{I}{R} d\psi \quad (11)$$

$\psi_1 + \psi_2$  intervalda (11) - ifodani integrallasak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$Q = -\frac{I}{R} \int_{\psi_1}^{\psi_2} d\psi = \frac{\psi_1 - \psi_2}{R} \quad (12)$$

Magnit maydonining o'zgarishi hisobiga hosil bo'lgan elektr maydon kuch chiziqlari magnit kuch chiziqlarini chirmab oladi.

V induktsiya vaqt bo'yicha o'zgargani uchun

$$\frac{\partial \mathbf{B}}{\partial t} \neq 0$$

va  $\vec{E}$  tsirkulyatsiya vektori, elektrostatik maydon induktsiya vektoridan farqi ravishda nolga teng emas.

SHuning uchun bunday elektr maydon potentsial maydon emas, u uyurmali bo'ladi va u maydonning nuqtasida potentsial bir qiymatga ega bo'lmaydi. Kuch chiziqlarini bosh va oxiri bo'lmay, ular yopiq chiziqlardan iborat.

